

UO‘K (UDC, УДК): 811.512.133:21

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MORFOLOGIK USULDA YASALGAN TRANSPORT SOHASI TERMINLARI¹⁴

Masharipov Jaxongir Axmedovich

*Tayanch doktorant
Urganch davlat universiteti
Urganch, O‘zbekiston*
Orcid ID [0000-0002-3054-8929](https://orcid.org/0000-0002-3054-8929)

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda tilshunoslikning dolzarb mavzularidan biri bo‘lgan terminologiya sohasi ushbu maqolaning markaziy mavzusidir. Maqola transport terminlarining yasash usullaridan biri bo‘lgan - affiksatsiya usuli orqali ingliz va o‘zbek tillarida transport terminlarini yasashiga bag‘ishlangan. Bunda ingliz va o‘zbek tillaridagi transport terminlarini yasashda faol qatnashadigan suffiks va prefikslar tegishli misollar orqali ifodalangan. Ingliz va o‘zbek tillarida affiksatsiya usuli yordamida yasalgan terminlar nechta tarkibdan tashkil topgani jihatidan ham tahlilga tortilgan. Ushbu transport terminlari so‘z turkumi jihatidan qaysi modellarda yasash imkoniyatlari ham ko‘rsatib o‘tilgan. Ingliz tili transport sohasiga oid bo‘lgan terminlarni o‘zbek tilidagi muqobillari bilan chog‘ishtirish mobaynida terminlarning leksik-semantik xususiyatlariga asosiy e‘tibor qaratilib, ularning izomorfik-allomorfik jihatlari aniqlangan. Tadqiqotni amalga oshirish uchun komponent tahlil, distributiv tahlil, tipologik va statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan. Maqolaning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi transport sohasiga tegishli terminlarning morfologik usulda yasash imkoniyatlarini aniqlash, ikkala tildagi ushbu usulda yasalgan terminlarni farqli va o‘xshash jihatlari aniqlash, shuningdek transport terminlarini yasashda eng samarali va faol qo‘llaniladigan prefiks va suffikslarni aniqlashdan iborat.

KALIT SO‘ZLAR

Transport, termin,
termin yasash,
affiksatsiya, prefiks,
suffiks, izomorf, allomorf.

Received: November 26,
2024

Accepted: December 23,
2024

Available online: March
1, 2025

¹⁴ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Maharipov J. A. Ingliz va o‘zbek tillarida morfologik usulda yasalgan transport sohasi terminlari.
// Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 1. — B. 115-127

ТРАНСПОРТНАЯ ТЕРМИНОЛОГИЯ, ОБРАЗОВАННАЯ МОРФОЛОГИЧЕСКИМ СПОСОБОМ, В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Машарипов Джахонгир Ахмедович

Докторант

Ургенчский государственный университет

Ургенч, Узбекистан

Orcid ID [0000-0002-3054-8929](https://orcid.org/0000-0002-3054-8929)

АННОТАЦИЯ

Центральной темой статьи является терминология как одно из самых актуальных на сегодняшний день направлений лингвистических исследований. Статья посвящена образованию терминов сферы транспорта в английском и узбекском языках при помощи такого способа словообразования, как аффиксация. В ней представлены примеры образования транспортной терминологии в английском и узбекском языках при помощи наиболее активных суффиксов и префиксов. Термины английского и узбекского языков, образованные при помощи аффиксального способа, также были проанализированы с точки зрения того, из скольких компонентов они состоят. Кроме того, в статье показаны возможности различных словообразовательных моделей в зависимости от особенностей частей речи, к которым относятся производные слова. При сравнении английских терминов, относящихся к сфере транспорта, с их узбекскими аналогами основное внимание уделялось лексико-семантическим свойствам терминов, выявлялись их изоморфно-алломорфные аспекты. Для проведения исследования использовались методы компонентного и дистрибутивного анализа, а также типологический и статистический методы. Цель статьи – выявить возможности морфологического образования терминов, связанных с транспортной сферой, в английском и узбекском языках, установить различия и сходства терминов, образованных таким способом в обоих языках, а также определить префиксы и суффиксы, которые являются наиболее распространенными, эффективно и активно используются для образования транспортных терминов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Транспорт,
термин,
терминообразование,
аффиксация, префикс,
суффикс, изоморф,
алломорф.

TRANSPORT TERMINOLOGY FORMED THROUGH MORPHOLOGICAL MEANS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Masharipov Jakhongir Akhmedovich

PhD student

Urgench State University

Urgench, Uzbekistan

[Orcid ID 0000-0002-3054-8929](https://orcid.org/0000-0002-3054-8929)

ABSTRACT

The field of terminology, which is one of the current topics in linguistics today, is the central topic of the article. The article is dedicated to the formation of transport terms in English and Uzbek through the affixation method, which is one of the methods of formation of transport terms. In this article, the suffixes and prefixes that actively participate in the formation of transport terms in English and Uzbek are expressed through relevant examples. The terms formed using the affixation method in English and Uzbek are also analyzed in terms of how many components they consist of. The possibilities of formation of these transport terms in terms of parts of speech are also shown. During the comparison of terms related to the English transport sector with their Uzbek counterparts, the main attention was paid to the lexical-semantic properties of the terms, and their isomorphic-allomorphic aspects were identified. The methods of component analysis, distributive analysis, typological and statistical analysis were used to carry out the research. The aim of the article is to identify the possibilities of morphological formation of terms related to the transport sector in English and Uzbek, to identify the differences and similarities of terms formed in this way in both languages, as well as to identify the most effective and actively used prefixes and suffixes in the formation of transport terms.

KEY WORDS

Transport, term, term formation, affixation, prefix, suffix, isomorph, allomorph.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda transport tizimida sodir bo‘layotgan islohotlar tilning leksik sathiga kirib kelayotgan xalqaro terminlar oqimini jadallashtirmoqda. Bu esa o‘z navbatida soha egalarining o‘z kasbiga oid termin va tushunchalarning asl mazmun va mohiyati xususida yetarli bilimga ega bo‘lishlarini taqozo etmoqda. L.S.Barxudarov ta’kidlaganidek, “Ilm-fan hamda texnikada bilimimiz rivojlanib borgani sari, yangi terminlarga bo‘lgan ehtiyojimiz ham muntazam oshib boradi”(Бархударов Л.С., 1970, 113).

Terminlar muammosiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda termin va terminologiyaning turli nazariy va amaliy masalalari atroflicha tadqiq etilgan. Ushbu masalalarga termin bilan umumadabiy tildagi so‘z o‘rtasidagi munosabatlar, terminlarning shakllanishi, qaror topishi, taraqqiyoti, davriy boshqichlarda qo‘llanilishi, sinonim va omonim terminlar, terminologiyadagi determinologizatsiya, reterminologizatsiya hodisalarining mavjudligi, terminlarning tizimli va struktur, shu bilan birga funksional semantik tahlili kabilar kiradi (Axmedov O.S., 2020, 8).

Maxsus soha qatlamini ifodalovchi terminologik tizimlar dunyoni idrok etish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Shuni inobatga olgan holda, zamonaviy jamiyatning transport tizimi kontekstida ushbu soha terminologik tizimlarini o‘rganish alohida ahamiyatga ega, chunki transport sohasiga tegishli terminlar eng yangi bilimlarni professional va boshqa muhitda tarqalishiga ta’sir qiladi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi transport terminlarini qiyosiy tipologik xususiyatlarini o‘rganishdan iborat. Xususan, soha terminlarining yasash masalalari ushbu maqola doirasida tahlilga tortiladi. Qiyoslanayogan tillarda affiksatsiya usuli bilan lug‘aviy birliklar yasash mahsuldor usullardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon ingliz va o‘zbek tillari transport terminlari uchun ham tegishli bo‘lib, affiksatsiya yordamida faol tarzda terminlar yasalishi davom etmoqda.

ASOSIY QISM

Termin yasashning morfologik usulida bir yoki bir nechta mahsuldor o‘zaklar

asosida soʻz yasovchi affikslar yordamida yangi termin yasaladi (Татаринов В.А., 1996, 217).

Affiksatsiya orqali soʻz yasash ingliz tilida ikkita asosiy guruhga boʻlinadi:

- 1) Suffikslar orqali
- 2) Prefikslar orqali.

Affiksatsiya usulida “suffiks va prefikslar, yaʼni soʻz yasovchi formantlar oʻzida tilning eng kichik (minimal) soʻz yasovchi, qurilish elementlarini aks ettiradi” (Кубрякова Е.С., 1972, 54).

Terminologik soʻz yasalishi har doim ongli jarayon boʻlib kelgan (Даниленко В.П., 1977, 90). Soʻz yasash usullari tilning lugʻat tarkibini toʻldirib, boyitib boruvchi mahsuldor usul hisoblanadi (Рустамов III., 1972, 11). I.V.Arnold ham soʻz yasash usullari keng qamrovli hamda muhim ahaamiyatga ega ekanini taʼkidlab, morfologik usul orqali soʻz yasashni mahsuldor ekanini taʼkidlaydi (Арнольд И.В., 1959, 106). Morfologik usulda “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” dagi 65000ga yaqin soʻzning 75 – 80%i soʻz yasovchi qoʻshimchalar orqali yasalganligi fikrimizni isbotlaydi (Usmonov S., 2007, 33).

Affiks nafaqat uning prototip asosi boʻlgan bir soʻzdan, balki kelib chiqishi boshqa oʻzaklar bilan ham yangi soʻz yasash xususiyatiga ega boʻlishi kerak. Affiksning yana bir oʻziga xos xususiyati shundaki, u unumli yoki unumsiz boʻlishi mumkin boʻlgan qoʻllanish chastotasi xususiyatiga ega. Mahsuldor affikslar yangi soʻz hosil qilish uchun samarali qoʻllanish chastotasi xususiyatiga ega (Олматова III. С., 2017, 101).

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida 300ga yaqin soʻz yasovchi affikslar mavjud boʻlib (Axmedov O.S., 2020, 55), ularning ayrimlari *-ish*, *-lik*, *-chi*, *-li*, *-uv* kabi affikslar transport terminlarining ingliz tilidan oʻzbek tiliga va aksincha, oʻzbek tilidan ingliz tiliga berilishida faol ishtirok etadi.

Ingliz tilidagi *-ing* va *-tion* suffikslari oʻzbek tilidagi asosan harakat nomi yasovchi *-(i)sh* qoʻshimchasiga toʻgʻri keladi. Ular transport terminologik tizimida faol termin yasovchi qoʻshimcha vazifasini bajaradi. Jumladan, *leaving* – *joʻnab ketish*, *carrying* – *tashish*, *driving* – *haydash*, *loading* – *yuklash*, *lubricating* –

moylash, **leaking** – oqish, sizib chiqish, **turning** – burilish, **securing** – xavfsizligini ta'minlash, **flying** – uchish, sanolyotni boshqarish, **landing** – qo'nish, **replacing** – almashtirish, **spinning** – aylanish, **rolling** – prokatlash, **honing** – xoninglash, **welding** – payvandlash, **oscillation** – tebranish, **titrash**, **injection** – purkash, **elongation** – cho'zilish, **automation** – avtomatlashtirish, **equalization** – to'g'irlanish va boshqalar.

So'z yasaliş jarayonida *-ing* qo'shimchasi asosan bir tarkibli leksemaga qo'shilish hodisasi ko'proq kuzatiladi. Inglizcha bir tarkibli bunday so'zlar o'zbek tilida ikki va undan ortiq tarkibli so'z birikmasiga aylanadi. Masalan, **leaving** – jo'nab ketish, **leaking** – sizib chiqish, **securing** – xavfsizligini ta'minlash, **flying** – havo kemasini boshqarish, **boarding** – passajirlarni bortga chiqarish, **decluttering** – xalaqit beruvchi signallarni bartaraf etish singari terminlar shular jumlasidan. Biroq, ingliz tili transport terminologiyasi sohasida *-ing* qo'shimchasi nafaqat bir tarkibli leksemalarga, balki ko'p tarkibli leksemalarga ham qo'shilishi kuzatiladi: **bad weather landing** – yomon ob-havo sharoitlarida qo'nish, **data handling** – ma'lumotlar bilan ishlash, **upwind landing** – shamolga qarshi qo'nish, **advanced air combat manoeuvring** – mukammal boshqarish apparati. To'g'ri, bu *-ing* tarkibli so'zlarni o'zi alohida ma'no kasb eta oladi, lekin birikma sifatida bu terminlar transport terminologiyasi lug'atlarida alohida keltiriladi.

E'tiborli tomoni shundaki, ingliz tilidagi *-ing* suffiksi bilan yasalgan transport terminlari orasida o'zbek tiliga *-(i)sh* qo'shimchasi bilan berilmaydigan holatlar ham mavjud. Masalan, **welding rod** – elektrod, **metering** – dozalovchi, **incoming beam** – tushuvchi nur, **crossing** – chorraha, **coating** – qoplama, **folding seat** – yig'iladigan o'rindiқ, **flying boat** – uchar kema, **rowing boat** – eshkakli qayiq, **sounding ship** – o'lchov kemasi, **academic training** – akademik tayyorgarlik.

O'zbek tilida *-ov*, *-uv* harakat nomi yasovchi qo'shimchalar orqali ifodalangan quyidagi transport terminlari mavjud: **rul boshqaruvi**, **havo tashuvlari hajmi**, **o'quv parvozi**, **o'lchov kemasi**, **tanishuv parvozi**, **qiyosiy uchish sinovlari** kabi.

Bundan tashqari, *-ment* suffiksi ham fe’ldan ot yasovchi funksiyani bajaruvchi suffiks bo’lib, harakat jarayoni va harakat natijasini ifodalab keladi. Ingliz tilida **verb+ment=noun/ fe’l+ment=ot** modeli asosida yasalgan transport terminlarining o’zbek tilida ifodalanishi ham o’ziga xos. O’zbek tilida inglizcha *-ment* qo’shimchasi ayrim hollarda *-uv*, *-chi*, *-(i)sh* qo’shimchalari bilan berilsa, aksariyat hollarda alohida so’zlar orqali ham ifodalanadi: *agree* (rozi bo’lmoq) – *air transport agreement* (havo xizmati haqida kelishuv), *arrange* (rejalamoq) – *arrangement* (joylashuv), *replenish* (to’ldirmoq) – *replenishment* at sea ship (yoqilg’i bilan ta’minlovchi kema), *abandon* (tark etmoq) – *abandonment* (baxtsiz hodisani tark etish), *assess* (baholamoq) – *damage assessment* (shikastni baholash), *manage* (boshqarmoq) – *apron management service* (perron xizmati), *develop* (rivojlanmoq) – *development* aircraft (tajriba uchish apparati).

Ingliz tilidagi *-(i)ty* suffiksi orqali hosil qilinadigan so’zlar quyidagi **adjective+ity=noun/sifat+ity=ot** modellarida o’z aksini topgan. Mazkur suffiks transport terminshunosligida sifatdan ot turkumi yasallishida faol ishtirok etadi. Ushbu qo’shimchalar o’zbek tilidagi *-lik* qo’shimchasiga to’g’ri keladi va u ingliz tilidagi singari so’zning oxiriga qo’shiladi. Masalan: *hardenability*, *angularity*, *safety*, *universality*, *airport capacity*, *aircraft capacity* kabi terminologik birliklar shular jumlasidandir. O’zbek tilida esa bu so’zlar quyidagi shaklda beriladi. Jumladan: *toblanuvchanlik*, *burchaklik*, *xavfsizlik*, *universallik*, *aeroport sig’imliliigi*, *havo kemasining sig’imliliigi*. Ingliz tilida bu suffiks orqali yasalgan boshqa terminlar ham borki ular o’zbek tilida ba’zida *-iyat*, ba’zan esa alohida so’z shaklida ifodalanadi: *early firing opportunity* – havo jangining dastlabki bosqichida o’t ochish imkoniyati, *high-payload/long-range capability* – katta hajmdagi yukni uzoq masofaga tashish qobiliyati, *full-lift capability* – maksimal ko’tarish kuchi, *lift capacity* – havo kemasini tashuv hajmi, *fixed-wing flying activity* – havo kemasi parvozi.

Ingliz tilidagi *-er* o’zbek tilidagi *-chi* affiksiga to’g’ri keluvchi mahsuldor suffiks bo’lib, shaxs otlarini yasaydi. U ingliz tilida fe’l so’z turkumiga mansub so’zlarga qo’shiladi va muayyan kasb egalarini bildiruvchi ot yasash uchun xizmat

qiladi (Axmedov O.S., 2020, 55). Jumladan, transport sohasi doirasida ular quyidagicha namoyon bo'ladi: **verb + er = noun – fe'l + suffiks = ot**. Masalan, *driver* – *haydovchi*, *driller* – *parmalovchi*, *borer* – *yo'nuvchi*, *freighter* – *yuk tashuvchi*, *miller* – *frezalovchi*, *loader* – *yuk ortuvchi*, *grinder* – *jivirlovchi*, *moulder* – *qolipchi*.

Yuqoridagi holat ingliz tilida nafaqat kasb egalari uchun, balki transport vositalari turi yoki transport vositasining qismini bildirib ham ishlatiladi: *stopper* – *tiqin*, *trailer* – *tirkama*, *coupler* – *ilashma*/avtosepka, *timber carrier* – *yog'och tashuvchi* kema, *pusher* tug – *itaruvchi* shatakka oluvchi kema, *fighter* ground attack – *hujumchi* samolyot, *icebreaker* – *muzyorar*, *runner* – *tez yurar* kema, *muffler* – *ovoz pasaytirgich*, *starter* – *o't oldirgich*. Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, ushbu transport terminlarining o'zbek tilidagi variantlari ba'zan *-chi*, ba'zan esa boshqa suffikslar orqali beriladi.

Ma'lumki, o'zbek tilidagi *-li* affiksining vazifasi keng qamrovlidir. Uning asosiy funksiyasi ot so'z turkumiga oid leksemalarga qo'shilib, mavjudlik ma'nosini ifodalab keladi.

Transport terminologiyasida mazkur *-li* affiksli birikmalar faol qo'llaniladi. Masalan: *motorli* (qayiq), *kayutali* (yaxta), *refrijiratorli* (kema), *pedalli* (qayiq), *yelkanli* (qayiq), *diskli* (tormoz), *gipertovushli* (havo kemasi), *uch palubali* (kema).

Bu suffiks o'zbek tilidagi transport sohasi doirasida samarali so'z yasovchi qo'shimchalardandir. Bu suffiksli terminlar ingliz tilida *-ing*, *-ant*, *-ous*, *-al*, *-ic*, *-(e)d* suffikslari bilan berilgan holatlari mavjud bo'lib, soha terminlarini yasashda asosan alohida so'z va so'z birikmalari yordamida ifodalanadi. Masalan, *rowing* (boat) – *eshkakli* (qayiq), *bird-resistant* (windscreen) – *qushlarga chidamli* (old oyna), *hazardous* (weather conditions) – *xavfli* (ob-havo sharoitlari), *digital* (control) – *raqamli* (boshqaruv), *supersonic* (aircraft) – *supertovushli* (havo kemasi), *oar-propelled* (lifeboat) – *eshkakli* (qutqaruv qayig'i), *motorli* (qayiq) – *autoboat*, *kayutali* (yaxta) – *cabin* (scow), *refrijiratorli* (kema) – *cold-storage* (boat), *muzlatkichli* (trawler) – *part-freezer* (trawler), *og'ir ikki dvigatelli* (havo kemasi) – *big twin*. Ba'zi *-er* suffiksli ingliz transport vositalari turlarini ifodalovchi terminlar

o‘zbek tilida *–li* suffiksi bilan ifodalanadi: *three-decker* – uch **palubali** kema, *sailer* – **yelkanli** kema, *double-decker aircraft* – ikki **palubali** havo kemasi.

O‘zbek tili transport terminologiyasida aniqlovchi qismi *–iy* (*–viy*) affiksi sifat yasovchi va shakl hosil qiluvchi qo‘shimcha hisoblanib, transport terminologiyasida bunday affiksli birikmalar ham uchrab turadi. Ular asosan bosqa soha terminologik birliklari hisoblanib, ikki so‘zning birikishidan transport terminlariga aylangan. Masalan: *yakuniy* (*shartlar*), *doimiy* (*parvoz, qatnov*), *yadroviy* (*energiyali kema*).

O‘zbekcha *–iy* (*–viy*) affiksi ingliz tilida *–al*, *–ic*, *–ed*, *–ary*, *–ar* affikslari va yaxlit bir so‘z bilan ifodalanishi mumkin. Masalan: *terminal* (*airport*), *atomic submarine*, *domestic airline*, *forced* (*cooling, landing*), *imaginary* (*axis*), *nuclear* (*ship*), *regular* (*flight*), *final* (*conditions*).

O‘zbek tilida qo‘shma affikslar orqali yasalgan transport sohasiga tegishli birikmalar ham mavjud. Jumladan, *asosiy uchish tayyorgarligi*, *tormozlanish*, *relsga to‘g‘irlash*, *shikastni baholash*, *sekinlashtiruvchi*, (*parvoz paytida*) *vaziyatdan xabardorlik*, *etillanmagan* gaz. O‘zbek tilidagi qo‘shma affikslar ingliz tilida *–ing*, *–tion*, *–ment*, *–or*, *–ness*, *–un* va *–ed* affikslari orqali ifodalanishi mumkin: *basic training*, *deceleration*, *alignment*, *damage assessment*, *decelerator*, (*in-flight*) *awareness*, *unleaded* gas.

Ingliz tili transport terminlarini o‘zbek tili bilan chog‘ishtirish jarayonida terminlarning leksik-semantik xususiyatlariga asosiy e‘tibor qaratildi, ularning izomorfik-allomorfik jihatlari aniqlandi. Jumladan, ingliz tili transport terminologiyasida qo‘shma hamda so‘z birikma shaklidagi terminlar tarkibida **non-** hamda **–un** prefikslari mavjud bo‘lib, ular grammatik forma yasovchi, inkorni va asos so‘zdan anglashilgan tushunchaning antonimini ifodalovchi old qo‘shimchalar hisoblanadi: **non-combant** (*ship*), **non-magnetic** (*vessel*), **non-self-propelled** (*craft*), **non-powered** (*vessel*), **unclassified** (*miscellaneous vessel*), **undecked** (*boat*), **unhandy** (*ship*), **unmanned** (*ship*), **unstable** (*aircraft*). Mazkur affikslar o‘zbek tilida miqdor, jarayon yoki voqelikning mavjud emaslik, bo‘lishsizlik belgisini ifodalab keluvchi *no-*, *–magan* va *–maydigan* suffiks va prefikslariga to‘g‘ri keladi. O‘zbek tilidagi ushbu qo‘shimchalarning ingliz tilidagi differensial belgisi ham so‘z

boshida, ham oxirida kelishi bilan farqlanadi: **nojangovar** (kema), **harbiy bo'lmagan** (kema), **nomagnit** (kema), **mustaqil harakatlanmaydigan** (kema).

Yuqoridagi misollarda *un-* prefiksi sifat soʻz turkumidagi soʻzlarni yasash uchun xizmat qilgan boʻlsa, juda kam hollarda ingliz transport terminologiyasida bu suffiks feʼl soʻz turkumidagi soʻzlarni ham yasaydi. Masalan, **uncouple**. Bu termin oʻzbek tiliga *ajratish* tarzida, yaʼni inkor affikssiz, lekin shu maʼnoni bildiruvchi yakka soʻz orqali beriladi. Bu termin temir yoʻl sohasida vagonlarni, avtomobil va dengiz transporti sohasida esa asosiy transport va uning tirkamasini bir-biridan ajratish maʼnosida qoʻllanadi.

Oʻzbek tilidagi *qoʻzgʻalmas boshqaruv tutqichlari* termini ingliz tilida *held controls* shaklida ifodalanadi. Bu holatda termin soʻzma soʻz emas, maʼnoviy aks ettirilgan. Shuningdek, oʻzbek tilida *–siz* inkor affiksi ham transport terminologiyasi sohasida uchraydi: (*samolyot bilan sodir boʻlgan*) **baxtsiz** hodisa. Ushbu termin ingliz tilida (*fixed-wing*) *accident* termini bilan ifodalanadi. Shuningdek, *be-* prefiksi bu soha terminologiyasi kuzatiladi: **bepul** xizmat. Bu termin yana yakka soʻz orqali (*tekin*) ham aks ettiriladi.

Ingliz tilida *dis-* prefiksi ham inkor maʼnoni ifodalab keladi. Transport sohasi terminlari yasaliishida bu prefix sifat hamda feʼl soʻz turkumlariga qoʻshilib soʻz yasay oladi: **discontinuous** (*control*) – *uzilishli / davomiy bo'lmagan* (boshqaruv); **displace** (*the center-of-gravity*) – (*ogʻirlik markazini*) *oʻzgartirish*.

Yuqorida qayd etilgan inglizcha terminlar tarkibida faqat prefiks ishtirok etayotgan boʻlsa, quyidagi terminologik birliklarda esa undan farqli tarzda **dis+noun+ment**, **de+noun+ment**, **de+noun+ency** konstruksiyasiga muvofiq terminlarning integral xususiyatlaridan tashqari differensial belgilarini ham tahlil qilishga sharoit yaratadi. Terminlar prefiks va suffikslar yordamida teng shaklda, yaʼni *dis-*, *de-*, *-ment*, *-cy* qoʻshimchalari soʻzlarning old hamda orqa tomoniga qoʻshilishi orqali yasaladi. Ayrim manbalarda ushbu soʻz yasash usuli sirkumfiksatsiya deb ham yuritiladi (Axmedov O.S., 2020, 63). Masalan: **disbandment**, **derailment**, **deficiency** shular jumlasidan hisoblanadi.

O'zbek tilida yuqoridagi qo'shimchalarning asos so'zlarga qo'shilishi ingliz tilidagi singari bo'lmaydi, garchi suffiks qo'shib yasalsada prefikslar ma'no jihatdan keltiriladi. Jumladan: *poyezd tarkibini buzish, relsdan chiqib ketish, yetishmovchilik* yoki *nuqson*.

Ingliz tilida *re-* prefiksi biron bir ish-harakatning takroriy bajarilishini ifodalab keladi. U o'zbek tilida asosan *qayta* leksemasi orqali beriladi, ba'zan esa o'zbek tiliga ma'noviy o'girilgani hisobiga boshqa leksemalar orqali ham ifodalanishi mumkin. Inglizcha transport sohasiga oid quyidagi terminologik birliklar **re+verb=verb/re+fe'l=fe'l** modeli asosida yasaladi: *reequip (an aircraft), reticket, realign*. Mazkur modelga muvofiq yasalgan terminologik birliklarning ko'pchiligi bir tarkibdan tashkil topgan bo'lsa, ularning o'zbekcha muqobillari kamida ikki tarkibli bo'lib, hattoki oltita tarkibli terminlar ham kuzatiladi. Masalan: *(samolyotni) qayta jihozlamoq, biletni qayta rasmiylashtirmoq, temir yo'l tizimini qayta tartibga solmoq*.

XULOSA

Shubhasiz, tilshunoslik taraqqiyotining hozirgi bosqichida terminologik sohalarni tizimli ravishda ifodalovchi tarmoq lug'atlarini yaratishga alohida e'tibor qaratish zarur (H. B. Кондратьева, Ж. И. Эрметова, О. А. Рузметова, 2022, 666). Shu bilan birga, bunday lug'atlar tarkibidagi affiksatsiya usuli bilan yasalgan terminologik birliklarni o'rganish ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chuntomova ta'kidlaganidek, terminning leksik-morfologik xususiyatlarga egaligi terminlarning bir ma'noligiga ta'sir ko'rsatishga qodir, chunki terminning morfologik tuzilishi qanchalik murakkab bo'lsa, uning bir ma'nolilik va aniqlikka intilishi shunchalik kuchayadi (Чунтомова Ю. А., 2004, 53). Shuni inobatga olgan holda, morfologik struktura orqali yasalgan terminlarni o'rganish terminologiya rivojiga salmoqli hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Axmedov O.S. Ingliz va o'zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari. Monografiya. -T.:2020.-63 b.

2. Usmonov S. Yuristning nutq madaniyati. – T.:2007.-33b.
3. Арнольд И.В. Лексикология английского языка.-М.:1959.- с.106.
4. Бархударов Л.С. О значении и задачах научных исследований в области терминологии//Лингвистические проблемы научно-технической терминологии.-М.:1970.-с.113.
5. Даниленко В.П. Русская терминология: опыт лингвистического описания.- М.:Наука,1977.-с.90.
6. Кондратьева Н. В., Эрметова Ж. И., Рузметова О. А. Дифференциальные признаки математических терминов в удмуртском языке (в сопоставлении с узбекским языком). Вестник угроведения. Т. 12, № 4 (51). 2022.-с.666.
7. Кубрякова Е.С. Семантика производного термина//Внутренняя структура языка.-М.:1972.- с.54.
8. Олматова Ш. С. Лексико-семантический анализ терминологии железнодорожного транспорта в таджикском, русском и английском языках:Дис... канд. филол.- Д.:2017.-с.101.
9. Рустамов Ш. Калимасозии исм дар забони адабии ҳозираи тоҷик.- Душанбе:1972.-116.
- 10.Татаринов В.А. Теория терминоведения//Теория термина: история и современное состояние. М.:1996.-с.217.
- 11.Чунтомова Ю. А. Английская транспортная терминология:Дис... канд. филол.- М.:2004.- с.53.

REFERENCES

1. Akhmedov O.S. (2000) Linguistic analysis and translation problems of tax and customs terms in English and Uzbek. Monograph. Tashkent. p.63.
2. Usmanov S. (2007) The culture of speech of a lawyer. Tashkent. p.33.
3. Arnold I.V. (1959) Lexicology of the English language. Moscow. p.106.
4. Barkhudarov L.S. (1970) On the meaning and tasks of scientific research in the field of terminology//Linguistic problems of scientific and technical terminology. Moscow. p.113.

5. Danilenko V.P. (1977) Russian terminology: an experience of linguistic description. Moscow. Science. p.90.
6. Kondratieva N.V., Ermetova J.I., Ruzmetova O.A. (2022) Differential features of mathematical terms in the Udmurt language (in comparison with the Uzbek language). Bulletin of Ugric Studies. Vol. 12, No. 4 (51). p.666.
7. Kubryakova E.S. (1972) Semantics of a derivative term//Internal structure of the language. Moscow. p.54.
8. Olmatova Sh. S. (2017) Lexical and semantic analysis of railway transport terminology in the Tajik, Russian and English languages: Diss... Cand. Phil. Diss. p.101.
9. Rustamov Sh. (1972) Noun word formation in the modern Tajik literary language. Dushanbe. p.11.
10. Tatarinov V. A. (1996) Theory of terminology//Theory of the term: history and current state. Moscow. p.217.
11. Chuntomova, Yu. A. (2004) English transport terminology: Dis... Cand. Phil. Moscow. p.53.